

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

IBRAGIMOV Murodjon Boxodirovich

“Sotsiologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14092879>

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT VA NODAVLAT TASHKILOTLARI KOMMUNIKATIVLIGINING USTUVOR JIHLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif jamiyat taraqqiyotida yoshlarning kommunikativ failiyatini takomillashtirishda O‘zbekistondagi yoshlarga oid davlat va nodavlat tashkilotlarining kommunikativligi - bu tashkilotlarning o‘zaro aloqa, axborot tarqatish va yoshlar bilan muloqot qilishdagi samaradorligini ifodalaydi. Yoshlarni jamiyat taraqqiyotida juda ham ahamiyatli ekanliklarini, ularning ijtimoiy faolligini o‘zgartirishga nisbatan olimlarning fikrlarini o‘rganib, barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va bu borada yoshlar tashkilotlari faoliyati samarodligi asosida yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yanada kengroq jalb qilish, ularning islohotlardagi faolligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilish masalasi ta‘kidlab o‘tilgan.

Bugungi kun yoshlarining jamiyat hayotida yoshlar faoliyatida ularning kommunikativligini yangi bosqichga olib chiqqan xolda yoshlarga oid davlat va nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil etgan. Ularning bir-biri bilan bog‘lovchi alohida jihatlarni ko‘rsarib asoslab bergan.

Kalit so‘zlar: kommunikativlik, intizom, mas‘uliyat, barqarorlik, motiv, globallashuv, PR texnologiyalar, yoshlarga oid davlat siyosati, NNT, tilshunoslik kommunikatsiyasi xuquqiy ong, huquqiy savodxonlik, yoshlar siyosat subyekti, ta‘sis hujjatlari, davlat yoshlar huquqi, yoshlar bandligi, ratsionallashuv.

ПРИОРИТЕТНЫЕ АСПЕКТЫ КОММУНИКАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С МОЛОДЕЖЮ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор выражает коммуникативность государственных и негосударственных организаций, связанных с молодежью Узбекистана, в повышении коммуникативной активности молодежи в развитии общества - эффективность этих организаций во взаимном общении, распространении информации и общении с молодежью. Изучая мнения ученых относительно того, что молодежь играет очень важную роль в развитии общества, изменении ее социальной активности, воспитании зрелого поколения, создании необходимых условий для обеспечения интересов и потребностей молодежи, и в связи с этим на основе эффективности деятельности молодежных организаций, политической и общественной деятельности молодежи был подчеркнут вопрос более широкого вовлечения в процессы, уделяя особое внимание обеспечению ее активности в реформах.

Он проанализировал взаимоотношения государственных и негосударственных организаций, связанных с молодежью, выведя их коммуникативность на новый уровень в социальной жизни современной молодежи. Он объяснил, показав их особые аспекты, которые связывают их друг с другом.

Ключевые слова: коммуникабельность, дисциплинированность, ответственность, устойчивость, мотивация, глобализация, PR-технологии, государственная молодежная политика, ННО, языковая коммуникация, правосознание, правовая грамотность, субъект молодежной политики, учредительные документы, государственное молодежное право, трудоустройство молодежи, рационализация.

PRIORITY ASPECTS OF COMMUNICATION OF STATE AND NON-STATE ORGANIZATIONS RELATED TO YOUTH IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

In this article, the author expresses the communicativeness of state and non-state organizations related to youth in Uzbekistan in improving the communicative activity of young people in the development of society - the effectiveness of these organizations in mutual communication, information dissemination and communication with young people. studying the opinions of scientists regarding the change, creating the necessary conditions for raising a competent generation, providing for the interests and needs of young people, and in this regard, on the basis of the effectiveness of the activities of youth organizations, to involve young people in political and social processes more broadly, to ensure their activeness in reforms the issue of focus is highlighted.

He analyzed the relationship between state and non-state organizations related to youth, bringing their communicativeness to a new level in the social life of today's youth. He explained by showing their special aspects that connect them with each other.

Keywords: communicativeness, discipline, responsibility, stability, motive, globalization, PR technologies, state youth policy, linguistic communication, legal awareness, legal literacy, youth policy subject, founding documents, state youth law, youth employment, rationalization

Kirish

O'zbekistondagi yoshlarga oid davlat va nodavlat tashkilotlarining kommunikativligi - bu tashkilotlarning o'zaro aloqa, axborot tarqatish va yoshlar bilan muloqot qilishdagi samaradorligini ifodalaydi. Ushbu jarayonlar yoshlar bilan ishlovchi davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, yoshlar muammolarini hal qilish va ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Keling biz dastaval O'zbekistondagi yoshlarga oid davlat va nodavlat tashkilotlarining umumiy hususiyatlariga e'tiborimizni qarataylik. Masalan, Yoshlar ishlari agentligi. Bu tashkilot Yoshlarni har tomonlama qamrab olish, qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi uchun turli foydali dasturlar ishlab chiqadi. Agentlikning yoshlar bilan o'zaro kommunikativ munosabatlari turli axborot kompaniyalari, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faoliikka chorlovchi mazmundagi seminarlar, forumlar va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Metodologiya

Globalshuv davri yoshlarni juda ham kuchli va raqobatbardosh bo'lishlarini talab etadi. Tabiiyki, o'z navbatida Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi.

Ular yoshlarga karyeralarini rejalashtirishda yordam berish va ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta'minlashda faol ishtirok etadi. Biroq ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi yoshlarga bilim va ko'nikmaning shakllantirish tamoyillariga tayanib xulosa qiladigan bo'lsak, yoshlar tashkilotlarining ta'lim tizimidagi bo'limlari bu borada yanada ko'proq va jiddiy ishlashlarini talab etadi.

Asosiy qism

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat va nodavlat tashkilotlari o'z faoliyatlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yganliklari barchamizga ma'lum. Albatta bu tashkilotlar jamiyatning turli sohalarida o'z faoliyatlarini olib borayotganlari bilan alohida ajralib turadi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularning hamjihatligi, kuchli bilim va o'zaro kommunikativligini ta'minlashda ta'lim tashkilotlarining o'rni beqiyos.

Ayniqsa, ta'lim tashkilotlari ichida faoliyat olib borayotgan yoshlar tashkilotlari yoshlarning ertangi kunda jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalovchi, ijtimoiy faol qatlam sifatida namoyon bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki O'zbekiston yoshlar ittifoqining ta'lim muassasalarida juda ko'plab ishlarni amalga oshirmoqdalar. Ammo fikrimizcha ularning faoliyatlarini yanada to'liqroq bo'lishi va boshqa yoshlarga oid tashkilotlar bilan o'zaro aloqadorlik tamoyillarini yanada chuqurlashtirishda media savodxonlik masalasini takomillashtirish va piardan maksimal foydalanish bugunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi. Masalan jamoatchilik bilan aloqalar hamda kommunikatsiya bo'yicha Buyuk Britaniyalik mutaxassis Sem Blakning kommunikativlik haqidagi fikrlarini va ularning muhimligini batafsil tahlil qilamiz. U kommunikativlikni insonlar o'rtasidagi aloqalarni va ularning ma'lumot almashishini ifodalovchi jarayon sifatida tushuntiradi. U kommunikativlikni jamiyatdagi ijtimoiy tizimning asosi sifatida ko'radi [1].

Darhaqiqat, bugungi texnologiyalar rivojlangan bir paytda kommunikativlik masalasi alohida darajaga ko'tarilgani hech kimga sir emas, ammo tashkilotlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik takomillashmas ekan, institutsionallashtirilgan tashkilotlarda o'zaro hamkorlik va rivojlanish masalalari biroz passiv formada bo'lishi tabiiy.

Ta'kidlash lozimki, tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning naqadar muxim xisoblanadi. Misol tariqasida "Jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi faoliyat tashkilotlar va uning jamoatchiligi o'rtasidagi do'stona munosabatlarni o'rnatish va saqlab qolishga qaratilgan rejalashtiriluvchi va amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar hisoblanadi" [2] fikrini olaylik, ushbu fikrlar bugungi kunda tashkilotlar va jamoatchil o'rtasidagi doimiy ravishda o'zaro aloqadorlikni ta'minlanishi kerakligini eslatib turadi. Fikrimizcha, kommunikativlik faqat ma'lumot almashishdan iborat emas, balki ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. U ijtimoiy identifikatsiya, guruhlararo muloqot va madaniy almashuvlarni ta'kidlaydi. Uning nazariyalarida simvolizm muhim ahamiyatga ega. U, insonlar o'rtasidagi kommunikativlikda simvollar (ramzlar) so'zlar, harakatlar, mimikalar) qanday ahamiyatga ega ekanini va ushbu vositalar yordamida odamlar o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini ifodalashadi deb ta'kidlaydi.

Sem Blakning kommunikativlik haqidagi fikrlari jamiyatda ijtimoiy aloqalarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. U kommunikativlikni ijtimoiy tizimning asosiy komponenti sifatida ko'rgan holda, simvolizm va madaniyatni bu jarayonga bog'lab tahlil qiladi. Odamlar o'rtasidagi muloqot faqat axborot almashishdan iborat emas, balki shaxslararo munosabatlar, madaniy almashuvlar va ijtimoiy identifikatsiyani ham o'z ichiga oladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Blakning nazariyasi, zamonaviy jamiyatda kommunikativlikni tushunishda va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Ushbu fikrlar va nazariyalar, ayniqsa, kommunikativlik jarayonlarini o'rganish va yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar uchun juda ham zarur deyishimiz mumki. Zero, ular o'zaro aloqalarini mustahkamlash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Bugun insoniyat rivojlanishning yuksak cho'qqilariga yetdi. Odamlar turmush tarzidagi bunday o'zgarishlarga, avvalo, inson omili, uning faolligi, mas'uliyati va shaxslararo muloqotning umumsayyoraviy miqyosda kengayishi sabab bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, axborot texnologiyalarining yuksak darajada rivojlanishi dunyoning turli mintaqa va mamlakatlarining yagona iqtisod, ilm va madaniyatga birlashishiga turtki bo'lmoqda. Bu esa dunyo odamlarini bir-biriga ipsiz bog'lab qo'yimoqda.

Avvalo, har bir tashkilot qandaydir maqsadni amalga oshirishni ko'zlaydi. Bu qandaydir mahsulotni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish kabilar bo'lishi mumkin. Shunday ekan, ushbu maqsadlarning o'zi qaysidir ma'noda tashkilot qadriyatiga aylanadi. Tashkilot faoliyatining maqsadlari ushbu tashkilot mahsulot va xizmatlaridan foydalanuvchi xaridorlar guruhining individual va jamoaviy ehtiyojlari tomonidan belgilanadi. Lekin tashkilotlar uchun shunchaki buyurtmachining o'zi yetarli emas. Ushbu buyurtmachining buyurtmasini ado etib, tashkilot yana boshqa buyurtmachiga ehtiyoj sezadi.

Har qanday ishlab chiqarish ko'rinishi bilan shug'ullanuvchi tashkilot uchun barqarorlik, funktsiya bajarish davomiyligi, ushbu tashkilotning kelajakda ham «kerak» bo'lishining muayyan darajada kafolati zarur. Shunday ekan, muntazam buyurtmachi, bunday buyurtmachilar bilan uzoq muddatli, barqaror munosabatlar muhim tashkiliy qadriyatlardan biridir. Ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tashkilot uchun shuningdek uning faoliyati qanday xarajat va yo'qotishlar evaziga yo'lga qo'yilishi, u yo'lga qo'ygan xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi qandayligi, muayyan mahsulotning ishlab chiqarilishi zararli yoki foydali ekani ham katta ahamiyatga egadir. Tovar ishlab chiqarish sharoitlarida maksimal darajadagi iqtisodiy samaradorlik, foyda olish muhim tashkiliy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish tashkilotlarining amal qilishini belgilovchi umumiy qadriyatlardan tashqari, tashkilot ichida mavjud bo'luvchi bir qator qadriyatlarni ham sanab o'tish mumkin. Tashkilot o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini faqatgina muayyan funktsional va strukturaviy tartiblarga amal qilish orqali bajarishi mumkin va ushbu tartiblar uning barqarorligi kafolati bo'ladi. Tashkilotdagi tartib uning ishchilarining mehnat xulq-atvori bilan, ularning mehnat va texnologik tartib va qoidalar amal qilishi bilan ushlab turilishi mumkin.

Intizom, mas'uliyat va barqarorlik – ushbu qadriyatlarning barchasi ishlab chiqarish tashkilotini saqlab qolinishiga hissa qo'shuvchi sifatlardir. Lekin shuningdek, tashkilotda strukturaviy jihatdan, texnologiyalarda, munosabatlarda yoki funktsiyalarida yangiliklar joriy qilishga ham ehtiyoj mavjud bo'ladi. Turli innovatsiyalar ham tashkilotning muhim qadriyatlaridan bo'lishi kerak. Bu esa shuni anglatadiki, novatorlik, tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlar tashkilot ichida amal qiluvchi muhim qadriyatlar sifatida ham kelishi mumkin.

Qolaversa, empirik sotsiologik tadqiqotlardan shu narsa ma'lumki, rahbar maqomiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar faqatgina so'zda novatorlikni, tashabbuskorlikni qadrlashadi, lekin o'z qo'li ostidagilardan shaxsiy vafodorlik, konformizm va bo'ysunuvchanlik kabi sifatlarni kutadi. Oqibatda, bu sifatlarni ham tashkilot ichida amal qiluvchi qadriyatlar qatoriga qo'shishimizga to'g'ri keladi.

Tadbirkorlik faoliyati natijasida ob'ektiv tarzda yuzaga keluvchi umumiy qadriyatlar ham mavjuddir. Bu qadriyatlar tashkilotlar madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq, har bir tadbirkorlik tashkilotida bunday qadriyatlar o'zgargan holda kelishi mumkin. Ba'zi tashkilotlarda bu qadriyatlar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etsa, ba'zilarida esa birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Muayyan tashkilotning barcha strukturalarini birlashtira oladigan muhim qadriyatlarni yarata olish qobiliyati, amerikalik tashkiliy madaniyat mutaxassislari T.Piters va R.Uotermanlar fikricha, muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatining eng muhim manbalaridan hisoblanadi: “Qadriyatlar tizimini barcha uchun ochiqlash va unga hayot baxsh etish – bu rahbar qilishi mumkin bo'lgan eng muhim ishdir” [3].

Darxaqiqat, tashkilot faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri shundan iboratki, rahbarning o'z xodimlari bilan sog'lom kommunikatsiyaga kirishishi, ya'ni ularning nafaqat faoliyatlari balki ijtimoiy hayoti bilan ham yaqindan tanishishi, xodimlarni xar tomonlama qo'llashi va ularga ochiq va adolatli faoliyati bilan o'rnak bo'lishi tashkilot faoliyatining asosiy vazifalaridan bo'lib xizmat qiladi.

Tashkilotning muhim qadriyatlari va faoliyat tamoyillarining yaratilishi atrof muhitda va muayyan tashkilot ishchilari ko'z o'ngida tashkilotning obrazini yaratishga, bugungi kun iborasi bilan aytganda, tashkilot imidjini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashkiliy muammolarning hal etilishi, birinchi navbatda, allaqachon shakllanib ulgurgan korporativ madaniyatni tahlil qilishni, uning firma rejalarini amalga oshirishdagi ta'sirini aniqlashni talab qiladi, chunki har qanday o'zgarishlar firmaning ichki imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Rahbarlar qachon o'zgarish qilmoqchi bo'lgandagina o'z tashkilotlarining ichki imkoniyatlaridan xabar topishi firmaning parchalanishi va kasodga uchrashi omili bo'lishi mumkin. Chunki bunday tashkilot joriy qilinishi zarur bo'lgan o'zgarishlarni qabul qila olmaydigan holga kelgan bo'ladi. Bunda ikki madaniyatning, ya'ni eski va yangi madaniyatning o'zaro to'qnashuvi sodir bo'ladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yangi uslublar va yangi faoliyat sohaslariga moslashib, qayta tashkillasha oladigan firmalar yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda ko'proq muvaffaqiyat qozonmoqda. Shuning uchun ham har qanday firma korporativ madaniyatining shakllantirilishi maqsadga muvofiq tarzda olib borilishi, firma esa sodir bo'layotgan o'zgarishlarga bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham yangicha tarzda javob bera olishi, quyidan yuqorigacha bo'lgan barcha bo'g'inlardagi jamoaviy ruhni ushlab tura olishi kerak. Bunda yangi texnologiyalar nafaqat voqealar rivojiga qarab joriy qilinishi, balki ularni oldindan bashorat qilishga qarab ham yo'nalish olishi lozim.

Tashkilot madaniyati amal qilishining muayyan mexanizmlari mavjud bo'lib, bu joriy qilinishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar muvaffaqiyatining kafolati bo'ladi va ular uchun qulay iqlim xozirlaydi. Birinchi navbatda, bu xodimlarning novatorlik qobiliyatlarini va tashabbuslarini qo'llab quvvatlab, parvarishlash siyosatining joriy qilinishi muhimdir. Dinamik va sodir bo'layotgan o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha oladigan firmalarda ishga nisbatan bunday yondashuv barcha turdagi xodimlar va rahbariyat uchun eng muhim talab darajasiga ko'tariladi. Bunda eng muhim rolni yaxshi tashkillashtirilgan, ish beruvchi takliflar yig'ish, o'rganish va joriy qilish, qolaversa ularni barcha boshqaruv va xodimlar darajalariga moslashtirish tizimi o'ynashi kerak.

Bunda xodimlarning o'z konstruktiv takliflari rahbariyat tomonidan ijobiy qabul qilinishi muhiti eng muhim rol o'ynaydi. Agar bu takliflar qaysidir sababga ko'ra rad etiladigan bo'lsa, bunda bir qator PR texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar bunda rahbariyat nomidan o'sha takliflarni ilgari surgan xodimlar bilan aloqaga chiqib, ularga rad etilish sabablarini tushuntirishi kerak. Ijodiy salohiyatga ega xodimlarni taqdirlash va qo'llab-quvvatlash tizimini joriy qilish nafaqat xodimlarni moliyaviy qo'llab quvvatlashni, balki ularga ruhiy dalda berish, yoki ularning o'z malakalarini oshirishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratilishini ham nazarda tutishi kerak.

Biroq, bunda muayyan qiyinchiliklar ham mavjud bo'lib, ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Birinchi, bugungi kunda tashkilot rahbariyatiga kelib tushadigan ko'plab takliflarning samarasizligi sabablaridan biri - bu ijodkorlik va novatorlikning bir-biridan farqlanmasligidir. Ijodkorlik yangi narsalarni o'ylab topishdir. Novatorlik esa - yangi narsalarni yaratish xisoblanadi. Yangi va foydali g'oya tashkilotda yillab "chang bosib", joriy qilinishini kutib yotishi mumkin va buning sababi uni hech kim hayotga joriy qilinishini o'z bo'yniga olmagan bo'ladi. Joriy qilinmagan g'oyalar hech qanday foyda bermaydi. Ularning qadrini barcha uchun ko'rsatadigan narsa - bu ularning joriy qilinishidir.

Odatda korporatsiyalarga o'z ortidan barchani ergashtirib, barcha uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lgan ijodkor xodim yetishmaydi. Faoliyatga joriy qilinmasdan, ko'pchilik yangiliklar qog'ozda qolib ketishining sababi ham shundadir. Qolaversa, jamoatchilik nazdida jo'shqin va ijodkor odam - bu boshqalar bilan ishlay olmaydigan, toqatsiz va egoistik odam degan tasavvur shakllangan. Tashkilot rahbarlari odatda bunday xodimlarni sog'lom aql bilan kelishmaydigan xodimlar deb ham hisoblab, ularni ishga qabul qilmasliklari mumkin. Qabul qilsa ham, ularni mansab pillapoyalaridan ko'tarilib, mukofotlanishiga yo'l bermasligi mumkin. Unga shunchaki jiddiy bo'lmagan, parvoyi falak kishi sifatida qaralishi mumkin.

Ikkinchi, har bir tashkilot uchun eng muhim muvaffaqiyat omillaridan biri bu PR texnologiyalari bo'lib, tashkilotning o'z sohasidagi rivojlanish nuqtalarini aniqlash imkonini beradi.

Bu esa firmada joriy qilinayotgan o'zgarishlar tempi va ritmini xodimlarning tayyorgarlik darajasi bilan mos yoki mos emasligini aniqlash imkonini beradi. Avvalo ustuvor vazifalarga urg'u beruvchi o'zgarishlar strategiyasi samarador hisoblanadi. Xodimlar rahbariyatning rejalari va tashvishlaridan xabardor bo'lishi kerak va o'z faoliyat sohasini qanday takomillashtirish mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Bunda aynan shunisi eng muhimidir va xodim ham barcha say-harakatlarini aynan shu tomon yo'naltirishi kerak bo'ladi.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari o'z faoliyatida mustaqil bo'lgan turli darajadagi jamoat tashkilotlari, yangilanishlar sharoitida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini ta'minlashda O'zbekistondagi davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida o'zaro kommunikativ aloqalarning o'zni beqiyosdir. O'z navbatida ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatini yanada takomillashtirishda NNT larning roli yangi o'zbekistondagi sodir bo'layotgan demokratik jarayonlar bilan izohlanadi.

Shu o'rinda yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida O'zbekiston respublikasi prezidentining PQ-5012-son Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi[4]qarorini ta'kidlab o'tish joiz. Bu qarordan ko'zlangan maqsad Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokchi va xamkor sifatida nodavlat tashkilotlarining rolini mustahkamlash, ularni yanada qo'llab quvvatlash, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda yangi tashkil etilayotgan yoki qayta ro'yhatdan o'tkazilayotgan NNTlarga yanada ko'proq imkoniyatlar berish edi. Buning natijasi o'laroq, ularni qayta davlat ro'yhatidan o'tkazish hamda ramzini tasdiqlash muddati bir oydan 15 kunga qisqartirilgan, ayrim nodavlat tashkilotlarini qayta ro'yhatdan o'tkazish bojlari esa bekor qilindi.

Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining asosiy elementlaridan bo'lgan NNT lar o'zaro sog'lom raqobat asosida jamiyatda yoshlarning o'z o'rinlarini topishlariga yordam berishda faol bo'ladilar. Albatta bu jarayon yoshlarga oid davlat va nodavlat tashkilotlarining turli tashabbuslar hamda, ular tomonidan ishlab chiqilayotgan loyihalar va ularning kelajak avlod uchun foydali bo'lishi vazifasini yuklagan holda bajarilishni talab etadi.

Xulosa

Ma'lumki, davlat tashkilotlari, masalan, Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi, yoshlarga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Ular yoshlar uchun ta'lim, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik va madaniy dasturlarni tashkil etish bilan shug'ullanadi. Bu tashkilotlar davlatning yoshlar siyosatini amalga oshirish va monitoring qilish uchun muhim platforma hisoblanadi.

Davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik yoshlarga ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Nodavlat tashkilotlar davlatning imkoniyatlarini to'ldiradi va yoshlarga ta'lim, tadbirkorlik, salomatlik va huquqiy yordam bo'yicha qo'shimcha xizmatlar ko'rsatadi. Bu hamkorlik yoshlarga qaratilgan dasturlarni yanada kengroq va samarali qilishga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi kommunikativlik yoshlarga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik samaradorligini oshirish uchun o'zaro aloqalarni yaxshilash, resurslar va tajribani birlashtirish, hamkorlikka asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish zarur.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Влас, Сем. Communication Theory: Media, Technology, and Society. Routledge, 1992. P.270
2. Блэк С. Введение в паблик рилейшнз. С. 15.
3. Bernays E.L. The Later Years. Public Relations Insights 1956-1986. Rhinebeck, 1986.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 03.03.2021 йилдаги ПҚ-5012-сон
5. IBRAGIMOV M. ZAMONAVIY JAMIYATLARDA PR TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTNING BOSH OMILARIDAN BIRI SIFATIDA //UzMU xabarлари. – 2024. – Т. 1. – №. 1.2. 1. – С. 107-110.
6. Ибрагимов М. JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2023. – Т. 6. – №. 4.